

9-sinf O'zbekiston tarixi

6-dars: Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Rossiya imperiyasi va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida aloqalarning yomonlashuvi va istilochilik yurishlari sabablarini tushuntirish hamda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishining maqsadi va yurish bosqichlari, Toshkentning bosib olinishi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarga sarkarda Alimqul jasorati va Toshkent shahrining bosib olinishi tarixini bayon qilib berish va bu orqali ularda vatanparvarlik hissini shakllantirish;

Turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "BINGO"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Rossiya imperiyasi, elchiliklar, Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy, Murkroft, Stoddart, Konnoli, Raim qal'asi - 1847, yurish bosqichlari, Toshkent, Alimqul, Toshkentning bosib olinishi, 1847-1865-yillar, 1865-1868-yillar, 1873-1879-yillar, 1880-1885-yillar

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

O'tilgan mavzu quyidagi savol va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi:

1-topshiriq: «Bingo» mashqi

Xudoyorxon saroyi	Muhammad Aminxon	Tillashayx
1862	1871	1863-1870
XIX asr 70-yillari	1859	1851-1855

O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda raqamlar va so'zlar yozilgan bo'ladi.

O'qituvchi shu raqam va nomga taalluqli jumlani o'qiydi va o'quvchi o'qilayotgan jumlag tegishli raqam yoki atamani belgilaydi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Toshkentda joylashgan masjid. (Tillashayx)
2. Baroqxon madrasasini ta'mirlash ishlarining boshlanishi. (1859)
3. Muhammad Aminxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?(1851-1855)
4. Muhammad Rahimxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan? (1871)
5. Sulton Murodbek va Hokim Oyim madrasalari qachon bunyod etilgan? (XIX asr 70-yillari)
6. Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi qachon bunyod etilgan? (1862)
7. 1851-1852-yillarda bunyod etilgan madrasani aniqlang. (Muhammad Aminxon)
8. Qaysi inshootning xonalari yuzdan ortiq bo'lgan? (Xudoyorxon saroyi)
9. Xudoyorxon saroyi qachon bunyod etilgan? (1863-1870) Kartochkani birinchi bo'lib to'ldirgan o'quvchi «Bingo» - deb bildirib qo'yadi.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:



Turkiston harbiy okrugi askarlari

- **Bosib olish uchun tayyorgarlik;**
- **O'rta Osiyoga qarshi istilochilik yurishi bosqichlari;**
- **Toshkent bosib olinishining strategik ahamiyati**

Bosib olish uchun tayyorgarlik

Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida o'z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Bunda, eng avvalo, xonliklar to'g'risida ko'proq ma'lumotlar



to'plash maqsadida o'z elchilarini bu yerlarga jo'natdi. Pyotr I hukmronligi davridayoq Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya jo'natilgan. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng podsho hukumati harbiy istehkomlar qurishga kirishdi. 1718-yilda Irtish daryosi sohilida shunday istehkomlardan yettitasi qurib bitkazildi.

Sayyoh, savdogar, elchilar sifatida yuborilgan ayg'oqchilar tomonidan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy ahvoli, suv va quruqlikdagi yo'llari to'g'risida ma'lumotlar yig'ib borildi. XIX asrda Rossiya imperiyasining sanoat xomashyosiga bo'lgan ehtiyojining ortishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlari uchun qo'shimcha iste'mol bozorlarining zarurligi, to'qimachilik sanoati uchun arzon paxta tolasi yetkazib beradigan hududga ega bo'lish muammolari O'rta Osiyoning bosib olinishini yanada tezlashtirdi. Shuning uchun XIX asrning o'rtalarida bu hududni bosib olish Rossiya imperiyasining birinchi navbatdagi vazifasiga aylandi. Bundan tashqari xalqaro doirada ingliz tovarlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi, Angliyaning bu hududga nisbatan qiziqishi ortib borishi Rossiya imperiyasi hukumatining istilochilik harakatlarini yanada tezlashtirdi. Buyuk Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi XIX asrdan boshlab strategik ahamiyatga ega bo'lgan xonliklarning tabiiy boyliklari, xomashyo mahsulotlariga qiziqqa boshladi. O'rta Osiyoga 1825-yilda M.Murkroft Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun yuboriladi. U Buxoroga kelib, qaytib ketayotganda ikki hamrohi bilan halok bo'ladi. 1832-yilda Buxoroga A. Byorns, 1844-yilda mayor I.Volf, 1843-yilda Xiva va Buxoroga kapitan J. Abbol yuborilgan.

O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularga Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklifi bilan Buxoroga kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Ch.Stoddarl va A. Konnoli 1842-yilda amir tomonidan qatl qilindi. Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantiradi. Shundan keyin Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. Natijada 1855-yilda o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi.

XIX asrning o'rtalariga kelib Angliyaning O'rta Osiyoga nisbatan olib borayotgan bunday siyosati va podsho hukumatining Qrim urushidagi (1853-1856) mag'lubiyati Rossiya imperiyasini Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish harakatlarini tezlashtirishga undadi. Buning uchun u, eng avvalo, unga olib boradigan yo'llar, ayniqsa, Rossiya imperiyasini O'rta Osiyo bilan bog'lovchi savdo yo'llarini to'liq o'z qo'lga olishga harakat qildi. Buning natijasida asosiy yo'l hisoblangan Toshkentga boradigan Orenburg yo'lida harbiy istehkomlar qurdi. Sirdaryoning Orolga quyulish joyida 1847-yilda *Raim qal'asi* bunyod etildi.

Chegara hududlarida yasbaydigan Rossiya imperiyasi fuqarolari bo'lgan aholiga talonchilik va bosqinchilik qilib turuvchi guruhlarining hujumlarini bartaraf etish podsho hukumatining O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlashiga bahona bo'ldi. Bundan tashqari to'qimachilik sanoati uchun xom-ashyo bo'lgan paxtaning yetishmasligi O'rta Osiyoni bosib olishga bo'lgan harakatlarni tezlashtirdi. Bu davrda AQSHda shimol va janub o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861-1865) tufayli Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga taqchillik vujudga keldi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi uzoq vaqt davom etgan o'zaro urushlar ularning iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashib qolishiga olib keldi. Bunday vaziyat oxir-oqibat xonliklarning istilo qilinishlarini onsonlashtirdi.

Shunday qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, ichki nizo va ziddiyatlar, davlat boshliqlarining uzoqni ko'zlab icliki va tashqi siyosat olib bormaganliklaridan nochor ahvolga tushib qoldi. Shunday vaziyatda Rossiya imperiyasi hukumati o'zining siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini ko'zlab O'rta Osiyoga harbiy istilochilik harakatlarini boshlaydi.

O'rta Osiyoga qarshi istilochilik yurishi bosqichlari

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi to'rt bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1847-1865-yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoliy-g'arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich — 1865-1868-yillarni qamrab olgan bo'lib, bunda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich - 1873-1879-yillar davomida Xiva va Qo'qon xonligi yerlarini bosib olishdan iborat bo'ldi.

To'rtinchi bosqich - 1880-1885-yillarda turkmanlarning bo'ysundirilishi edi. Shunday qilib, 1864-1885-yillarda 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi. O'rta Osiyo xonliklari hududining katta qismi bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi.

O'rta Osiyoga qarshi harbiy-istilochilik yurishlarining boshlanishi



XIX asr oxirida shahar ko'rinishi

Rossiya imperatori Aleksandr II (1855-1881) ning 1859-yilda Qo'qon xonligini bosib olishning davom ettirilishi to'g'risidagi ko'rsatmasidan so'ng harbiy harakatlar kuchaydi. Buning uchun, eng avvalo, xonlikning Toshkent shahri bosib olinishi zarur edi. Toshkentni bosib olishda Oqmachit qal'asi harbiy harakatlarning tayanchiga aylandi. Podsho qo'shinlarining Oqmachit qarasini bosib olish borasidagi dastlabki harakatlari (1852-yil) mag'lubiyatga uchragach, 1853-yilda uni egallash uchun ikkinchi marta hujum boshlanadi. 3 mingdan ortiq kishidan iborat harbiy qo'shinga 400 kishidan iborat qal'a himoyachilari 20 kun davomida qarshilik ko'rsatdi. Dushman tomonga nisbatan soni juda oz bo'lgan, qurshovda qolgan qal'a himoyachilari oxirgi imkoniyatlari qolgunicha jang qildilar. Kuchlar notengligi oqibatida podsho hukumati qo'shinlari tomonidan qal'a egallanadi. Keyinchalik bu qal'a harbiy harakatlar uchun tayanch punktga aylandi va unga *Perovskiy forti* deb nom berildi.



N. Veryovkin va M. Chernyayevlarning 1864-yilda uch mingdan ko'proq qo'shini ikki yo'nalishda: biri Perovskiy fortidan (Orenburg tomondan), boshqasi esa Verniy (Almati) shahri tomondan Toshkentni bosib olish uchun yo'lga chiqdi. 4-iyunda M.Chernyayev boshchiligidagi qo'shin Talas daryosining chap sohilidagi Avliyoota (hozirgi Tarozi shahri)ni bosib oldi. Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga rahbarlik qilishga Qo'qon xoni tomonidan amirlashkar Aliquli (Alimqul) yuborildi. N. Veryovkin, agar Turkiston himoyachilari taslim bo'lmasa, shaharni yalpi o'qqa tutib, barchani qirib tashlashini, Amir Temur tomonidan Ahmad Yassaviy sharafiga qurilgan maqbarani ham yakson qilishini ultimatum tarzida qo'ydi. Natijada Aliquli o'z qo'shinini Turkistondan olib chiqib, Chimkent mudofaasi uchun chekindi. Uch kunlik jangdan so'ng, 12-iyul kuni N. Veryovkin otryadi Qo'qon xonligiga qarashli Turkiston shahrini bosib oldi va 20 kilometrlik qal'a devori bilan o'ralgan Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Bu harbiy harakatlarga M. Chernyayev qo'mondon etib tayinlandi. 1864-yil kuzida Chimkent shahri egallanib, Yangi Qo'qon chizig'i asosida qo'lga kiritilgan qal'alar birlashtirildi. Bu vaqtga kelib Raim qal'asidan Perovskiy fortigacha Sirdaryo istehkom chizig'i, Semipalatinskdan Verniy shahrigacha Sibir istehkom chizig'i vujudga keldi.

Toshkent bosib olinishining strategik ahamiyati



Eski shahar xaritasi. XIX asr

Toshkent O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, yirik ma'muriy va savdo-sotiq markazlaridan biri hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta, ya'ni Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'ymas, Qo'qon,

Qoshg'ar darvozalari bo'lgan. Har tomondan shaharga kirish uchun qurilgan bu darvozalar soqchilar tomonidan qo'riqlangan. Shaharni mudofaa qilish uchun qurilgan devor ortida Kaykovus arig'ining suvi bilan to'ldiriladigan xandaqlar bo'lgan. Toshkent to'rtta — Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalariga bo'linib, har bir daha o'z oqsoqoli tomonidan boshqarilgan. XIX asr o'rtalarida shahar aholisi 80 mingga yaqin kishini tashkil qilgan.

Toshkent shahrining bosib olinishiga podsho hukumati jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Chunki Toshkentni egallash Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarini keng qamrovda va tayanch hududga ega bo'lgan holda olib

borilishini ta'minlar edi. Bu shahar O'rta Osiyoni bosib olish uchun asosiy yo'lak, harbiy qo'shinlarning kelgusidagi harakatlari uchun tayanch nuqta vazifasini bajara oladigan joy hisoblangan.

Xulosa

► 1864-yil 1-oktabr — Chernyayevning birinchi hujumi, Niyozbek qal'asining egallanishi, 1865-yil Toshkentning egallanishi.

► 1865-yil Orenburg general-gubematorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil qilindi. Unga M. Chernyayev harbiy gubemator etib tayinlandi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga (guruhlariga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: "Guruhlarda ishlash" uchun savollar:

1. O'rta Osiyoga yuborilgan ingliz elchilarining maqsadlari nima bo'lgan?
2. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishdan ko'zlagan maqsadlari nimalardan iborat bo'lgan?
3. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining bosqichlarini sanab bering.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



Yakunlarni chiqaramiz!

- Rus elchilarining O'rta Osiyo xonliklaridagi faoliyati;
- Oqmachit — 1853-yil, Chimkent, Turkiston — 1864-yil;
- Yangi Qo'qon, Sibir istehkom chiziqlarining tashkil etilishi;
- Harbiy yurish bosqichlari: 1847-1865, 1865-1868, 1873-1879, 1880-1885.



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi



VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Krossvord tuzib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

XULOSAVIY QO'SHIMCHA MA'LUMOT

O'RTA OSIYO BOSIB OLINISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

BIRINCHI BOSQICH 1847-1864	IKKINCHI BOSQICH 1865-1868	UCHINCHI BOSQICH 1873-1879	TO'RTINCHI BOSQICH 1880-1885
- Qo'qon xonligining shimoliy viloyatlari bosib olindi; - Avliyoota, Turkiston, Chimkent bosib olindi; - Toshkentni zabt etishga urinish.	- Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar, Toshkentning zabt etilishi; - Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning olib borilishi; - bosib olingan hududlarda Turkiston general-gubernatorligining tuzilishi.	- Xiva xonligining bosib olinishi; - Qo'qon xonligining Tugatilishi va uning o'rniga Farg'ona viloyatining tashkil etilishi.	Turkmaniston hududlarida harbiy harakatlar. - Turkmanlarning bo'ysundirilishi; - Kaspiyorti viloyatining tashkil etilishi; - Rossiya imperiyasining - O'rta Osiyo hududida Harbiy harakatlarning yakunlanishi.

